

“Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik fanlari” yo‘nalishidagi ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan

MAQSADLI DASTURI

T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
1.	 Rulonli kompozitsion qurilish materiallari ishlab chiqarishda mahalliy mineral to‘ldiruvchilardan foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: O‘zbekiston hududida mavjud mahalliy mineral xomashyolar, jumladan bentonit, kaolin, ohaktosh (kalsiy karbonat) va boshqa mineral to‘ldiruvchilarning fizik-kimyoviy hamda texnologik xususiyatlari kompleks o‘rganiladi; ularning rulonli kompozitsion qurilish materiallari (linoleum va shunga o‘xshash polimer qoplamalar) tarkibida qo‘llashning optimal miqdori va texnologik parametrlari aniqlanadi; mahalliy mineral to‘ldiruvchilar asosida tayyorlangan kompozitsiyalarning mexanik mustahkamligi, yeyilishga chidamliligi, elastikligi, suvga chidamliligi, issiqlik va yong‘in xavfsizligi ko‘rsatkichlari baholanadi hamda import xomashyolar o‘rni bosuvchi samarali tarkib va ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqiladi; ishlab chiqilgan texnologiyani amaliyotga joriy etish natijasida rulonli kompozitsion qurilish materiallari ishlab chiqarishda mahalliy mineral xom ashyo ulushi 40-60 % gacha oshiriladi, import qilinadigan mineral to‘ldiruvchilar hajmi kamaytiriladi, mahsulot tannarxi 10-20 % ga pasaytiriladi hamda ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi va ekologik xavfsizligi ta’minlanadi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tadqiqot natijalari “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi tasarrufidagi tashkilotlarda, xususan Toshkent viloyatidagi to‘p tarmoqli “SANFA” MChJda korxonasida sinovdan o‘tkaziladi (Sinovdan o‘tkazish bo‘yicha Dalolatnoma tuziladi) va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining xulosasi olinadi. Ushbu mavzu bo‘yicha 1 ta falsafa doktori dissertatsiyasi tayyorlanadi va himoyaga qo‘yiladi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun ariza va boshqa hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.